ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

JONTEMIR SHE'RIYATIDA SHAKL VA MAZMUN BIRLIGI BADIIY TAFAKKUR IFODASI SIFATIDA

Diyorov Eldorjon Kupaysin o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va tillarni o‘qitish
kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
Eldorjon.diyorov@mail.ru
+99893095093

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jontemir she'riyatida badiiy shakl va mazmun munosabati hamda ularning o‘zaro mutanosibligi masalasi tadqiq etiladi. Shoir she'rlarida shakl va mazmun birligining badiiy tafakkur ifodasi sifatida namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy asar yaxlitligini ta'minlashda shakl va mazmun uyg‘unligining o‘rni, poetik obraz, badiiy tasvir vositalari va kompozitsion qurilmaning mazmunni ochib berishdagi ahamiyati yoritiladi. Tahlillar asosida Jontemir she'riyatida shakl va mazmunning o‘zaro uyg‘unligi shoirning estetik idealini, individual uslubini hamda badiiy tafakkur xususiyatlarini namoyon etuvchi muhim poetik omillardan biri ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Jontemir, she'riyat, badiiy shakl, badiiy mazmun, shakl va mazmun birligi, badiiy tafakkur, poetika, obrazlilik, uslub, estetik ideal.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida shakl va mazmun munosabati masalasi badiiy asarning estetik qimmatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, obrazli tafakkur va ramziy ifoda ustuvor bo‘lgan she’riy namunalarda bu masala yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. *“Shakl – mazmunning yashash usuli*[1]*”* deb yozadi Izzat Sulton, Jontemir she’riyatida ham shakl va mazmun o‘zaro uyg‘unlikda namoyon bo‘lib, shoirning badiiy tafakkurini ochishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada shoirning ayrim she’rlari misolida shakl va mazmun birligi hamda uning badiiy fikr ifodasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Albatta, ushbu kichik tadqiqotda shakl va mazmun munosabati badiiy tafakkur nuqtai nazaridan tahlil qilinar ekan, avvalo, she’rlarning butun matnini berish, so‘ng tahlilga o‘tish maqsadga muvofiq. Dastlab, quyidagi she’r matni bilan tanishamiz:

FURSAT1.
Qarg’alardan umr tilanib
toshbaqaning sabrkosasin
uyqusini buzmay o’marsak.
Yelkamizga qo’nsa kak-kular,
Vaqtni bog’lab qo’ymoqlik uchun
Ashobi Kahf sori otlansak,
Bir-birovni uzoq quv-quvlab.

Yo bizlarni baliq yutsaydi,
Og’zimizga Xizr tupursa.
Ulgurmaymiz, kapalak – baxtga
juda qisqa berilgan fursat.

Qara, shamol libosin kiyib,
O’qday uchib boryapti kiyik.

Archalarga yalinamiz, yur,
Yur, chaynaymiz chinor ildizin.
Isomasman, sen emassan hur,
Hech yo’q umr andak siljisin.

[1] I.Sulton. Adabiyot Nazariyasi. O‘qituvchi, -T., 2005-yil, 142-bet

Nilufarim, tevarak botqoq,
Mingta gunoh hidlamoqqa shay.
Nafsga qarshi payti almisoq
emlashmagan bizlarni atay.

Xumo tumshuq urgan lahzaning
tomog'ini yirtmaydi nola.
Qo'y joyiga o'sha mevani –
Odamlanay, sen-da Havvolan.

Qara, qo'rquv jandasin kiyib,
Hadiksirab boryapti kiyib.

2.
Qarg'a ovozini kuyga solaman,
(Tasavvurni ag'darish kerak!)
Shilliqqurtni poygaga qo'shdim,
(Tasavvurni ag'darish kerak!)

Meni ayol emas, manov yer tuqqan,
Senga qaytmoq uchun unga kiraman.
Ezilgan shotutning shirasin
labimga tomizib labingdan
uyg'otib, yetaklab yurgizma.
Bunda hech ne tabiiy emas,
Bunda bari soxta ko'rgazma!

Yo'qsa, aytchi, gumon ariydi,
Shab-shubhaga kelardi qiron.
Men o'ttizga kirmay qaridim,
Million yilki o'lim navqiron?!

Qara, sho'rlik kiyik endi yo'q,
Fursat uni g'ajib tashlagan.
Yo xarsanglar yegan qovurib.
Shamol esa so'ngaklarini
tog'-toshlarga sochgan sovurib.

Ikkimizni baliq yutsaydi,
Og'zimizga Xizr tupursa…

"Ba'zi asarlar shakily jihatdan mukammla bo'lsa-da, mazmuniy jihatdan sayoz bo'lishi mumkin yoki buning teskarisi[2]", – deydi Nurullayeva Jazira o'z maqolasida. Jontemirning "Fursat" she'ri zamonaviy o'zbek she'riyatidagi assotsiativ tafakkurga asoslangan she'rlardan biridir. She'rning markaziy mazmunini inson umrining qisqaligi, vaqtning shafqatsiz oqimi hamda insonning abadiylikka bo'lgan ichki intilishi tashkil etadi. Biroq shoir bu g'oyani an'anaviy falsafiy mushohadalar orqali emas, balki kutilmagan obrazlar, mifologik ishoralar va surrealistik tasvirlar vositasida ifodalaydi.

Asarning dastlabki misralaridayoq:

Qarg'alardan umr tilanib
toshbaqaning sabrkosasin
uyqusini buzmay o'marsak.

[2] https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asarda-shakl-va-mazmun/viewer

misralarida umrni uzaytirishga bo'lgan insoniy istak ramziy shaklda beriladi. Qarg‘a ko'plab madaniy qatlamlarda uzoq umr timsoli sifatida talqin qilinsa, toshbaqa sabr va uzoq yashashning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Lirik qahramonning bu timsollardan “umr tilashi” insonning vaqt ustidan g‘alaba qozonishga bo‘lgan azaliy orzusini ifodalaydi.

Mazmunning murakkabligi she’r shaklida ham aks etadi. Misralarning erkin tuzilishi, sintaktik parchalanishlar va assotsiatsiyalarning tez almashinuvi vaqtning izchil emas, balki parcha-parcha idrok qilinishini ifodalaydi. Shu jihatdan shakl mazmunning tashqi qobig'i emas, balki uning bevosita davomiga aylanadi.

She'rda mifologik va diniy obrazlar muhim poetik vazifa bajaradi*: Ashobi Kahf sori otlansak* hamda *Og'zimizga Xizr tupursa*.

Ashobi Kahf va Xizr obrazlari vaqtni yengish, boqiylik va ilohiy najot haqidagi tasavvurlarni she'rning falsafiy qatlamiga olib kiradi. Biroq shoir bu timsollarni an'anaviy diniy ma'noda emas, balki insonning imkonsiz orzulari kontekstida qo'llaydi.

Asardagi eng muhim poetik obrazlardan biri kiyik timsolidir:

Qara, shamol libosin kiyib,
O'qday uchib boryapti kiyik.

Kiyik bu yerda fursatning, ya'ni qo'ldan chiqib borayotgan vaqtning ramziy ifodasidir. Uning shamolga qiyoslanishi vaqtning tutib bo'lmas va o'tkinchi tabiatini yanada kuchaytiradi. She'rning ikkinchi qismida shoir poetik tafakkur mohiyatini ochiq e'lon qiladi:

Tasavvurni ag'darish kerak!

Bu takroriy satr asarning estetik dasturi vazifasini bajaradi. Shoir an’anaviy tasavvurlarni buzib, qarg‘a ovozini kuyga aylantiradi, shilliqqurtni poygaga qo‘shadi. Natijada oq‘uvchi oddiy mantiqdan tashqariga chiqishga, borliqni yangicha ko‘z bilan ko‘rishga undaladi. Asar yakunida:

Qara, sho'rlik kiyik endi yo'q,
Fursat uni g'ajib tashlagan.

misralari orqali she'rning boshidan beri davom etgan falsafiy mushohada tragik xulosaga keladi. Avval shamoldek uchayotgan kiyik endi yo'q. Demak, vaqtning o'zi ham vaqt tomonidan yemiriladi. Bu paradoksal tasvir inson umrining nihoyatda qisqaligi haqidagi g'oyani kuchli poetik ta'sir bilan ifodalaydi.

Shunday qilib, "Fursat" she'rida shakl va mazmun o'zaro uzviy birlik hosil qilgan. Assotsiativ kompozitsiya, erkin she'r shakli, mifologik ishoralar, ramziy obrazlar va surrealistik tasvirlar inson umrining o'tkinchiligi haqidagi falsafiy mazmunni ochishga xizmat qiladi. Shu sababli asarda shakl nafaqat mazmunni ifodalovchi vosita, balki Jontemirning o'ziga xos badiiy tafakkurini namoyon etuvchi poetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Endi ikkinchi she’r matni bilan tanishamiz.

... Haydovchining asabiy signali muhabbatni cho‘chitib yuborar.
Oila boqishga yetmagan oylik,
muzlatkichdan chiqqan xo‘rsiniq...
Bir chiziq bor.
O‘tar tong qushlarin sayrog‘i undan — Muhabbatni opichlab.
Uylardan o‘tmas, metro, avtobus, yolg‘on ishlab chiqaruvchi bahaybat idoralar...
lekin qo‘nar go‘dak labiga.
Tabassumni bilar bu lablar.
Zaif tabassum. Esini tanigach so‘nar. Izlamas.
Bir chiziq...
Bog‘lab turar raqs tushayotgan juftlik ruhlarin,
o‘pishayotgan lablar shirasin.

Ko‘rdingizmi uni qadr kechasi?
Tilidan inshoollo tushmas chayqovchi
cho‘ntagida tanga sanar qulvachchalarday.
Kaltaklaydi ojiz erlar sochidan sudrab,
amaldorlar naq og‘ziga peshob sachratar —
illo buzilmasin itoatning garmoniyasi!

Bir... qanday olib kiray she’rga yolg‘onni?
Faqat qushlar o‘zgarmadi,
tashlab ketishmadi hali butunlay
haydovchining asabiy qahri bosib olgan bu mamlakatni.

Mazkur she'rda Jontemir zamonaviy insonning ma’naviy va ijtimoiy hayotini ramziy obrazlar orqali tasvirlaydi. Asarning markaziy g‘oyasini muhabbat, insoniylik va poklikning kundalik hayotning qo‘pol haqiqatlari orasida yashab qolish masalasi tashkil etadi. She’rning dastlabki misralaridayoq shoir muhabbat va zamonaviy turmush o‘rtasidagi ziddiyatni yaratadi:

Haydovchining asabiy signali
muhabbatni cho‘chitib yuborar.

Bu yerda muhabbat mavhum tuyg‘u emas, balki qo‘rqadigan, cho‘chiydigan tirik mavjudot sifatida gavdalanadi. Haydovchining asabiy signali esa shunchaki tovush emas, balki zamonaviy hayotning tajovuzkor ritmi timsoliga aylanadi. She’rning eng muhim poetik tayanchi “bir chiziq” obrazidir:

Bir chiziq bor.

Ushbu satrdan keyin shoir nuqta qo’yadi. Bu ramzning aniq ta’rifini bermaydi. Natijada u ko‘p ma’noli badiiy timsolga aylanadi. Ushbu chiziq insoniylik bilan shafqatsizlik, poklik bilan manfaatparastlik, muhabbat bilan zo'ravonlik orasidagi nozik chegarani anglatishi mumkin.

Bu yerda ham mazmun haqida gap ketar ekan D.Quronovning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishimiz mumkin: “*badiiy asarda shakl va mazmun ozaro dialektik aloqada bolib, ular bir-birini taqozo qiladi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-biriga o‘tadi. Badiiy shakl bilan badiiy mazmun munosabatida ham mazmun yetakchiroq mavqega ega bolib, u shaklni hosil qilishda juda faoldir*[3]*”.*

Mazmunning murakkabligi shaklda ham aks etadi. She’r an’anaviy qolip asosida emas, balki parcha-parcha tasvirlar va assotsiatsiyalar orqali qurilgan. Metro, avtobus, idoralar, go‘dak labi, qadr kechasi, chayqovchi, amaldor kabi turli obrazlar bir kompozitsion oqimga birlashtiriladi. Bu usul zamonaviy hayotning parchalanib ketgan manzarasini ifodalashga xizmat qiladi. Shoirning:

Uylardan o‘tmas, metro, avtobus,
yolg‘on ishlab chiqaruvchi bahaybat idoralar...

degan misralarida metaforik tafakkur kuchli namoyon bo'ladi. Ayniqsa “yolg‘on ishlab chiqaruvchi idoralar” birikmasi mavhum tushunchani konkretlashtirib, ijtimoiy tanqidni badiiy shaklga aylantiradi. Asarda go'dak obrazi alohida ahamiyatga ega:

...lekin qo‘nar go‘dak labiga.
Tabassumni bilar bu lablar.

Go‘dak hali yolg‘on, manfaat va zo‘ravonlik olamiga kirib ulgurmagan poklik timsoli sifatida talqin qilinadi. Biroq:

Esini tanigach so‘nar.

[3] D, Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004-yil, 93-bet

misrasi orqali shoir insonning ulg'ayish jarayonida tabiiy poklikni yo'qotishi haqidagi fojiaviy xulosaga keladi.

She'rning keyingi qismida ijtimoiy tanqid yanada keskinlashadi. Chayqovchi, zo'ravon er va amaldor obrazlari orqali jamiyatdagi axloqiy buzilishlar ko'rsatiladi. Biroq shoir bu hodisalarni publitsistik bayon etmaydi, balki badiiy obrazlar vositasida ifodalaydi. Natijada asar ijtimoiy chiqish emas, poetik mushohada tusini oladi.

Yakuniy misralar she'rning asosiy g'oyasini jamlaydi:

Faqat qushlar o'zgarmadi,
tashlab ketishmadi hali butunlay...

Qush obrazi bu yerda tabiatning tabiiyligi va ozodlikning ramziga aylanadi. Inson dunyosidagi buzilishlarga qarama-qarshi ravishda qushlar o'z mohiyatini saqlab qolgan mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Shunday qilib, she'rda shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy bog'langan. Erkin kompozitsiya, sintaktik bo'linishlar, ramziy obrazlar va assotsiativ tafakkur insoniylikning zamonaviy jamiyatdagi zaiflashuvi haqidagi mazmunni ochishga xizmat qiladi.

Jontemirning "Fursat" (2019) va "Bir chiziq..." (2026) she'rlari orasida yetti yilga yaqin vaqt masofasi mavjud. Shunga qaramay, har ikki asarda ham shoir ijodiga xos bo'lgan ramziy tafakkur va obrazlar orqali fikrlash usuli saqlanib qolganini kuzatish mumkin. Biroq mavzu va ohang nuqtai nazaridan ayrim o'zgarishlar ham seziladi. "Fursat" she'rida ko'proq falsafiy mushohada, vaqt va umr masalalari ustuvor bo'lsa, "Bir chiziq..." she'rida shoirning ijtimoiy kuzatuvlari va zamon haqidagi mulohazalari kuchaygan. Bu esa Jontemir poetikasida badiiy tafakkurning asosiy tamoyillari saqlanib qolgan holda, mavzu va qarashlar doirasining kengayib borganini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Sulton. Adabiyot Nazariyasi. O‘qituvchi, -T., 2005-yil, 142-bet
2. I.Sulton. Adabiyot Nazariyasi. O‘qituvchi, -T., 2005-yil, 142-bet
3. https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asarda-shakl-va-mazmun/viewer
4. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/yoshlar/jontemir-yangi-sherlar-6.html
5. https://t.me/jontemir_t/3655